

O'zbekiston Prezidentining Rossiyaga davlat tashrifi to'g'risida



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga binoan 2017-yilning 4-5-aprel kunlari davlat tashrifi bilan Rossiyada bo'ladi.



Rossiya rahbariyati bilan uchrashuv va muzokaralarda O'zbekiston bilan Rossiya o'tasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli masalalar, siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiya, ilmiy-texnik, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari atroflicha muhokama qilinadi.

Davlat rahbarlari mintaqaviy va xalqaro dolzarb muammolar yuzasidan ham fikr almashadilar.

Oliy darajadagi muzokaralar yakunlari bo'yicha ikki davlat Prezidentlarining Qo'shma bayonoti qabul qilinishi rejalashtirilgan.

Tashrif doirasida O'zbekiston – Rossiya munosabatlarini izchillik bilan rivojlantirish, o'zaro hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan hukumatlararo, idoralararo bitimlar, tijorat shartnomalari va boshqa qator hujjatlar imzolanishi ko'zda tutilgan.

[**O'zA**](#)